

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025  
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**M.Asatulloeva**

Professional so'zlar ishtirok etgan maqol va frazeologizmlarning pragmatik tahliliga doir ..... 5

**R.A.Ortiqov**

Ingliz mifologiyasini talabalarga o'qitishning zamonaviy asoslari ..... 10

**Q.V.Yo'ldor**

O'zbek va qozoq xalq maqollarida kvantitativlik ..... 14

**A.G.Sabirdinov**

Mirtemir she'rlarining milliy jozibasi ..... 19

**D.G'.Gafurova**

Shamol-sarlavhali asarlarda inson va jamiyat tasviri ..... 22

## TILSHUNOSLIK

**M.T.Abdupattoev**

Muallif idiosilining lingvopoetik xususiyatlari ..... 27

**H.X.Алиева**

Актуальность изучения диалектной лексики английского языка ..... 32

**H.X.Алиева**

Интеграция традиционных и современных методов в исследовании лексико-семантических особенностей диалектов английского языка ..... 35

**H.X.Алиева**

Региональное разнообразие английского языка и диалектное выравнивание в современной англии ..... 41

**L.A.Abdullayeva**

Abbreviatsiya muloqot jarayonida til birliklarini tejash vositasi sifatida ..... 46

**M.R.Allamberganova**

Kultegin yozma yodgorligida leksik takrorlarning ishlatilishi ..... 51

**U.M.Askarova**

Birikma-kiritmalar va gap kiritmalar (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida) ..... 56

**A.A.Qosimov**

Metaphorical dimensions: exploring the cognitive and cultural foundations of figurative language ..... 61

**M.E.Qobilov**

Surxondaryo viloyati Qipchoq shevasi antroponimikasida enantiosemiya ..... 69

**G.X.Ismoilova**

O'zbek va ingliz tillarida "farsihta/angel" va "shayton/devil" leksemalari ishtirok etgan maqollarining tahlili ..... 73

**U.M.Askarova**

Avtomatik tahrir dasturlarining savodxonlikni rivojlantirishdagi o'rni ..... 78

**J.A.Akhrorova**

Metonymy and its relation with discourse ..... 81

**Sh.U.Nosirova**

Ingliz huquqiy matnlari tili leksik-semantik va grammatik xususiyatlarining lingvokulturologik jihatdan tahlili ..... 84

**Sh.U.Nosirova**

Ingliz kasbiy muloqotida pragmatik vositalarning o'rni ..... 89

**U.M.Askarova, D.X.Xolbekova**

Matn tuzilishida tinish belgilarining o'rni va vazifalari ..... 93

**A.R.Kosimov**

So'zlarning shaxsga hissiy ta'siri xususiyatlari ..... 97

**Г.Н.Давлятова, Х.Б.Хотамова**

Идиоматические выражения в свете лингвокультурологии ..... 101

**З.С.Аманова**

Анализ культурно-исторических смыслов символов и знаков в современном информационном пространстве ..... 105



UO'K: 821.111

## SHAMOL-SARLAVHALI ASARLARDA INSON VA JAMIYAT TASVIRI

## ПОРТРЕТ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ WIND

## THE PORTRAIT OF MAN AND SOCIETY IN THE WIND-TITLE WORKS

Gafurova Dilobar G'ayratoliyevna 

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

## Annotatsiya

Mazkur maqolada muallifning badiiy asarda peyzaj tasviriga xos bo'lgan detallarning sarlavha sifatida tanlanishi ramziy-g'oyaviy ma'noni yoritishdagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Bunda o'zbek va jahon adabiyotida yaratilgan asarlar qiyosan tahlilga tortilgan. Ijodkorlarning shamol detalidan sarlavha sifatida foydalanish mahorati o'rganilgan.

## Abstract

The article examines the role of the author's choice of details characteristic of the depiction of a landscape as the title of a work of art in revealing its symbolic and ideological meaning. In this regard, a comparative analysis of works of Uzbek and world literature is carried out. The authors' mastery in using the detail of wind as a title is studied.

## Аннотация

В статье рассматривается роль авторского выбора деталей, характерных для изображения пейзажа в качестве заглавия художественного произведения, в раскрытии его символического и идейного смысла. В этой связи проводится сопоставительный анализ произведений узбекской и мировой литературы. Изучается мастерство авторов в использовании детали ветра в качестве заглавия.

**Kalit so'zlar:** detal-sarlavha, peyzaj, shamol detali, shamolli kecha, ena shamol, afg'on shamoli, qo'qon shamoli.

**Ключевые слова:** Деталь-название, пейзаж, деталь ветра, ветреная ночь, снова ветер, афганский ветер, кокандский ветер.

**Key words:** detail-name, landscape, wind details, wind of the night, wind of the mother, wind of the Afghan blanket, wind of the cocoon.

## KIRISH

Peyzaj tasviriga xos bo'lgan detallarning sarlavha sifatida tanlanishi ramziy-g'oyaviy ma'noga daxldor bo'lib, asar mavzusini yoritishdagi asosiy omil hisoblanadi. O'zbek adabiyotida Asad Dilmurodning "Ko'chki", [Alisher Ibodinovning "Oq oppoq bulutlar"](#) [Hamid G'ulomning "Qoradaryo"](#) [Keldi Qodirovning "Sel"](#), Asqad Muxtorning "Chinor", O'lmas Umarbekovning "Yoz yomg'iri" kabi asarlarida sarlavha uchun peyzaj tasvirlaridan foydalanilgan. Xuddi shu kabi shamol sarlavha bo'lib keladigan asarlar ham bor va ularda shamol muayyan g'oyaviy ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul muhabbat" (Muhabbat shabadalari) tazkirasiga e'tibor qaratilsa, asarda keltirilgan ilohiy ishq egalari, mashoyixlar, eranlar, Robitai mavt-nafsini yengan mardlar hayotidan xabar beriladi. Nasim - yengil va yoqimli shabada bo'lib, sarlavhadagi mohiyatiga ko'ra u oddiy tabiat hodisasi emas, ramziy timsol, ilohiy ishqdan xabar beruvchi shabadadir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

A.Muqimovning "Qo'qon shamoli" asarida huddi I.Sultonning "Shamolli kecha" hikoyasi yoli A. Qahhorning "Dahshat"idagi kabi kuchli, vahimali shamol turishi, aynan shu kechada fojearning sodir bo'lishi bayon qilingani bilan bir-biriga mohiyatan birmuncha yaqin tursa-da, fojear sababining turlicha ekani ularni farqlaydi. "Qo'qon shamoli" qishda qutirib ketadi. Tomlarda, daraxtlarda, simyog'ochlarda uvillaydi, o'kiradi, chiyillaydi. Daraxtlarni egadi, bukadi, «qars-qars» sindiradi. Elektr simlarini uzadi, o't chiqaradi. Hammayoqqa dahshat soladi. Shivalab yog'ayotgan qorni o'z mayliga qo'ymay to'zg'itadi, olis-olislarga uchirib borib pastqamliklarga, zovurlarga, burchak-burchaklarga tiqib tashlaydi"[1]. Ekspozitsiyada berilayotgan tabiat tasviri hikoyaning ayanchli



## ADABIYOTSHUNOSLIK

yakuniga ishora qiladi. Yuz bergan fojea – Jannat xola (ona)ning o'limi ikkinchi hikoyadagi qizaloqning yo'qolishi, uchinchi o'limi orasidagi farq va mushtaraklik ayolning yo'qotilishi bilan bog'liq. Jannat xola anchadan buyon betob, keksa, "bir haftadan beri ana ketdi-mana ketdi bo'lib yotardi"[2]. "Shamolli kecha" da buvisi Nozik, onasi Nazokat, xolalari Latofat deb chaqiradigan kichkina qizaloq hali hayotini yashashga ulgurgani ham yo'q. U qattiq shamolda, cho'lining o'rtasida yo'qolib qolgan. Unsin Dodhoning qo'lida erki bog'langan qiz. O'xshashligi shundaki, "Shamolli kecha"da ham aslida syujet chizig'ida fojeaning boshlanishi onaning o'limiga taqaladi. Xonadondagi bu sovuq shamol - holat anchadan, bolalarning onasi vafotidan buyon pishib-yetilib kelayotgan edi. Uchchala asarda ham darg'azab esgan shamol o'quvchiga boshdanoq yomon xabarning daragini berib ulgurgan. Asarlarning kesishish nuqtasi shamol va ayolni yo'qotish. "Shamolli kecha"da qizaloq, "Qo'qon shamoli"da Jannat xola, "Dahshat"da Unsinning fojeasi beriladi. Albatta, farqli jihatlar talaygina. Jannat xolaning o'limi aslida fojea emas, berilgan umrini osoyishta yashab o'tgan, hayotning achchig'u – chuchugini totgan inson taqdiri desak, "Shamolli kecha"da hikoya yakuni berilmagani sabab, o'quvchi qizaloqning topilishiga umid bog'laydi, "Dahshat"da fojea tub ildizlari bilan namoyon bo'lgan, "tabiat tasviri qahramonlar taqdiridagi dramatismni chuqurlashtiradi yoki ularning ruhlariga kuch baxsh etadi. Qahramonlarning harakatlarini asoslab, syujet rivojiga ta'sir ko'rsatadi"[3].

## NATIJA VA MUHOKAMA

B.Qobulning "Ena shamol" qissasida qahramon - bolaning Enasi bilan ruhan bog'liqligini shamol vositasida izohlanadi. Bola hamma yaxshi narsalar nomiga "ena" so'zini qo'shib oladi. Enashamol, enaqo'shiq, enaqorin xotiralar kabi. Muqaddas dargoh sanalgan Samarqandni ham enasiga qiyoslaydi. Hut kirishi bilan qishloqqa yoyilib esadigan Samarqand shamolini bola o'z tilida "Enashamol" deb ataydi. Shamolni enasi juda yaxshi ko'rgani uchun u bolaga ham aziz. "Shamol qancha cho'zilsa, dehqonchilik shuncha yaxshi bo'larmish, tog'da o't-o'lan, soyda suv serob bo'larmish, to'kinchilik bo'larmish. Samarqand xayru-baraka shahri emish. Uning shamolidayam qut bo'larmish"[4]. Qissada shamolning harakatlari, sochlarini enasidek siypalashi, atrofida parvonali bolaga enasi, uning aziz xotirasini eslatadi, shamol ena timsoli sifatida talqin etiladi. Samarqandda nurab borayotgan obidalarini ko'rgan bolaning nuroniy bilan qisqa suhbatida shamolning xalq so'zidagi yana bir ma'nosi ochiladi: "—Bularni qayta tiklasa bo'lmaydimi?

—Bo'ladi. nimaga bo'lmas ekan. Faqat egasi qiladi bu ishni. Buyurilgan odam qiladi. Shamolning o'ng kelishiga oz qoldi"[5]. Bu o'rinda shamolning o'ng kelishi, yaxshi kunlar kelishi, mamlakatda to'kinlik hukm surishi, bunyodkorlik ishlari amalga oshishi, bobolar makoni obod qilinishi kabi xalqning muqaddas orzu-umidlariga ishora qilinadi.

Sarlavhada shartli yoki ramziylik aks etadi. Hurshid Do'stmuhammadning "Shabada" hikoyasida shamol va shabadaning ramziy ma'nolari ifodalangan. Asarda to'satdan Nozikni ko'rganu oshiq b'lib qolgan, guldek oilasini buzgan Kamronning hayotidagi ko'ngilizliklar hikoya qilinadi. Faqatgina ikki o'rinda qo'llangan shamol kompozitsiyada muhim ahamiyat kasb etgan. Birinchisi qahramonning qalbiga kirgan shamol: "Komronning boshi aylanib ketdi, boshidan oyoqlarining uchi tomon yoki oyog'ining uchidan boshi tomon allaqanday to'lqin shuvillab o'tdi, ichiga daydi va telba shamol kirib qolgandek, shamol uni shu ondayoq muvozanatdan chiqarib ag'daradigandek"[6]. Parchada keltirilgan telba, daydi shamol – nafs Komronning hayotini butunlay o'zgartirib, asar syujetini ham keskin burib yubordi. Kamronning ichidagi alg'ov-dalg'ovlik, hayrat, hirs kabilarning qorishib ketishi o'ylamay qaror qabul qilishi, daydidek uydan chiqib ketishida ko'rinadi. Xatti-harakati daydi shabadaning behuda kezishini eslatadi. Ichiga kirgan shamol uni butunlay o'zgartiradi. Buni qahramonning atrofida gilar, xotini ham sezdi: "Komron ilgari Komron, eri ilgari er emas edi!..". Ikkinchi shamoldan muallif diniy tarbiyaga, muqaddas qadryatlarga uyg'un ravishda foydalanadi. "Guldek oilaning buzilishi arshni larzaga keltirishini aytgandim. Tushunmadi, tushunishni ham istamadi. Aytib qo'y, chiroyli uyidagi mashmashalarning bari o'sha men aytgan larzaning shabadasi, xolos... Uqdingmi, shabadasi..."[7]. Bundan ko'rinadiki, qahramonning tinch, sokin hayotiga kirib kelgan havf-xatar, vahima, noxushliklarning bari o'ylamay bosgan qadamining javobi. U bulardan xulosa chiqarishi va to'g'ri yo'lga qaytishi kerak. Aks holda shabada shamolga, dahshatli bo'ronga aylanishi mumkinligi uqtiriladi. "Xurshid Do'stmuhammad mazkur hikoyasida g'ayritabiiy hodisalardan syujet ta'sirchanligini ta'minlash an'anasidan samarali foydalangan holda oilaning muqaddas ekanligi haqidagi islomiy qarashga nopisand bo'lganlar,



albatta, jazosini tortishi haqidagi fikrni ifodalaydi"[8]. Muallif asarda yuksak axloqiy-tarbiyaviy xulosani o'ziga xos tarzda ifodalashga erishadi.

Komil Avazning "Tong epkini" hikoyasidagi epkin yengiltabiat kishilar xarakterini ochishga xizmat qiladi. Subh vaqtida inson ruhini yengillashtirib esadigan mayin shabada vaqtincha xissiyotlarni junbushga keltiradigan o'tkinchi tuyg'uga qiyoslanadi. Hikoya qahramoni Muxtasarning tong epkinidek aldamchi xislarga uchmagani, olisdagi turmush o'rtog'i Shuhratjonga vafodorligi, tiko egasining yengiltabiat yomon niyatli kishi ekani bir epkin misolida ochib beriladi.

Shamol sarlavhali asarlarning yana bir qimmatli jihati shundaki, ayrim asarlarda shamol mutlaqo ishtirok etmaganday taassurot qoldiradi, ammo qahramonlar xarakterida uning turli ko'rinishlarini ilg'ash mumkin. Masalan Isajon Sulton asarlarida shamolga xos ritm, ohang hamisha topiladi. "Shamol yozuvchi ijodiga shu qadar yaqin va qadrdon bo'lib ketganki, u voqelik tizimida bevosita ishtirok etmasa ham yo asar nutqi ohangida, ritmida yohud strukturasi uning esish paradigmasi aniq sezilib turadi"[9]. Ya'ni personajlar harakteridagi o'jarlilik, shiddat, so'zlash ohangi kabilarda shamol xislatlarining mujassamligi ko'rinadi. Professor Y.Solijonov tomonidan muallifning "Avazboylik tantilar", "Xun", "Tod" hikoyalari misolida shamolning qahramonlar xarakterini aks ettirishi aniq dalillar vositasida yoritib berilgan.

N.Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" asarida Bayna momoning qalbida uzoq yillar esgan qayg'u shamoli, Zamon otboqardan olingan shiddatli qasos, tabiatidagi sokinlik ostiga yashiringan kuchli ruhiy bo'ron aks ettiriladi. Hikoyada bir marta ham shamolga duch kelinmaydi, o'quvchi shamol ayolning qalbida, eri va o'g'li otib tashlangan mudhish kunda esa boshlagani, yillar osha bo'ronga aylangani, sira to'xtamagani, hatto qasos olingandan so'ng ham umrining oxirigacha qahramon taqdirida sovuq esaverganini asarni o'qish jarayonida anglab yetadi. "Bayna momo ko'nglidagi tuyg'ular evrilishi adib diqqatini ko'proq tortadi. Tabiat fasllarining tadrijiy joy almashinishi umrning bebaqoligini anglatadi, momo kechinmalarini ifodalaydi"[10]. Ijodkor badiiy lavhalar yaratish asnosida shaxs qalbiga murojaat qiladi. Inson o'tayotgan umrini to'xtatib qololmaydi, vaqt o'z missiyasini bajaradi, asardagi asosiy urg'u esa momoning qalb isyoniga qaratiladi. Demak, shamol Bayna momoning qasosi ramzi. Bu qasos yillar davomida o'chmadi, uzoq yillar fursat kutdi va nihoyat Zamon otboqar farzandiga to'y qilish arafasida bo'ronga aylandi.

I.Nishonovning "Afg'on shamoli" asarida Afg'onistonda tinchlikning darz ketishi va sovuq urush shamolining mamlakatga keltirgan vayronagarchiliklari, insonlar taqdiridagi baxtsizliklar haqida hikoya qilinadi. Sarlavhadagi shamol urushning timsoli, bosh qahramonga Bo'ron ismini berilishi ham ramziy ma'noda kelgan. Qahramonning maqsadi yo'lida hech qanday qiyinchilikdan qaytmasligi, to'siqlarni pisand qilmay shiddat bilan olg'a borishi nazarda tutiladi.

O.Yoqubovning "Ayamajuz" hikoyasida tugun sarlavhada beriladi. O'quvchi asar oxirigacha ayamajuz nima ekanini tushunmasligi mumkin. Qahramon tilidan bayon qilingan hikoyada Oqsoq Temurning qitmirligi, qo'pol xazili doim zil bo'lishi, bitta o'ylamay gapirilgan gapning badali qanchalik og'irligi qalamga olingan. Pokiza tuyg'ular bir nojo'ya so'zning qurboni bo'lgani, natijada oradan vaqtlar o'tib uchrashib qolgan bu ikki yosh qalbida chuqur iztirob, armonni xis qilishi personaj ichki monologi orqali yetkaziladi. Hikoya so'ngida Zohidaning gapi tugunni yechuvchi kalit vazifasini o'taydi. "Nega.. o'shanda ikki enlik xat yozmadingiz?.. xabar bermadingiz.. – O'sha gaplardan keyinmi?..O'ziyam ilk bahordagi qora sovuqdek bo'lgandi. Ayamajuz deydimi? Kutilmaganda kelib, ochila boshlagan gul-g'unchani urib ketadi"[11]. Ayamajuz - izg'irin shamol tinimsiz esib, erta bahorda endigina gullagan daraxtlarni gulini to'kib yuboradigan qora sovuq, hikoyada o'ylamasdan nojo'ya aytilgan sovuq gapga nisbatan ishlatilgan.

Normurod Norqobilning "Bo'ron qo'pgan kun" qissasida kekka ayolning jamiyatning axloqsiz toifasiga nafrati bo'ron sifatida berilgan. Asarda issiq garmisel aslida Sanam xolaning ichida boshlangan. Kitoblar orasida umr kechiradigan madaniyatli bu ayol kutubxonasi yonida do'kon, qassobxona ochgan, somsapazlik qiladigan erkaklarning atrofdagi tanish-notanish ayollarga qiladigan muomalasini ko'rganida garmisel tobora shiddatlanadi, nafrati ortadi. Nihoyat ayol o'z keliniga nisbatan bu ma'naviy buzuk kishilarning qarashlariyu, gap-so'zlarini xazm qila olmaydi va qo'lga to'satdan ilinib qolgan bolta bilan bu ishga nuqta qo'yadi. "qaynoq garmisel o'chakishgandek, ayolning etaklarini tortqilab, butun jismu-jahonini ko'z-ko'z qilmoqda edi. kimdir oh tortib yubordi. Boshqalari ham unga qo'shilishdi. Sanam xolaning bag'riga o't tutashgandek bo'ldi"[12]. Garmiselning yopirilishi - ayoldagi qahr-g'azabning namoyon bo'lishi asarning



## ADABIYOTSHUNOSLIK

kuliminatsiyasini belgilaydi. Tandirdan otilgan o'tin shamol yordamoda avval qog'ozlarga, keyin do'konlarga ilashib birpasta yong'in sodir bo'lishi garmselning asarga nima uchun kerakligini ochuvchi nuqta.

Garmsel azob va jazo shamoli sifatida boshqa manbalarda ham bayon etilgan. Bu qaynoq, quruq shamol Misrda Hamsin, Arabistonda Samum, Jazoida Sirokko deb ataladi. Aynan Samumning azob keltiruvchi ekani Qur'oni karimda ham berilgan. Xususan, Voqea surasining 42-oyatida Samum haqida aytiladi. Muallif Garmselni qo'llashda uning aynan shu ma'nolariga tayangan. Hikoya axloqsizlik haddidan oshgan jamiyat halokatga duchor bo'lishi haqidagi badiiy-falsafiy ma'no ustiga qurilgan.

Nurilla Chorining "Bo'ron tingan kecha" hikoyasi qor bo'ronda ro'y bergan Miroxun, ko'z ochirmagan bo'ron, bo'ronday yopirilgan mehmonlar, polvonlar jangida tog'a-jiyanning uchrashuvi, ikki polvonni bir-biriga bog'lagan rishta, xalqning mehmonnavozligiyu, el or-nomusi muqaddasligi, milliy an'ana va qadryatlarning qimmatini haqidagi didaktik asar. Mazkur asarda ham "Bo'ron qo'pgan kun"dagi kabi bo'ronning qo'pishi tasvirlanadi. Faqat bu chinakkam tabiat hodisasi sifatida berilgan.

Shamol-sarlavha asarlar chet el yozuvchilarining ijodida ham uchraydi. Afg'on-Amerikalik yozuvchi Xolid Husayniyning asarlari tom ma'noda diaspora adabiyotining shaklan va mazmunan yangilangan amerika-afg'on nasridagi qiyofasini aks ettiradi, deyish mumkin. Muallifning "Shamol ortidan yugurib" romani behuda shamollar ortidan quvgan insonlar, qismatlar, taqdirar haqida hikoya qiladi. Unda Afg'onistondagi urishning dahshati, shamolga uchgan bolalik orzulari tasvirlanadi. O'lkani vayron qilgan tolibonlar hukmronligi, urushning sovuq qiyofasi, qiyin davrda bolalik perspektivasi ajal bilan olishib yashayotgan go'daklar timsolida yoritilgan. Voqealar Amir va uning xizmatkori do'sti Xasan haqida bo'lib, bunda varrak o'yini vositasida syujeti yo'nalishi chiziladi. Xasaning xo'rlanishiga jim qarab turgan, yordam berolmagan Amirning vijdoni ajabda qoladi, buni unutish uchun ikkinchi xatoga yo'l qo'yadi, ya'ni Xasanga tuhmat qilib, uydan haydalanishiga sababchi bo'ladi. Bu Amir Xasanga munosib do'st emasligi ko'rsatadi. Xasanda vatanparvarlik va sadoqat fazilatlarini Amirda qo'rqqoqlik va bir umrlik vijdon azobi beriladi. Do'stiga varrakni tutib kelish uchun shamol ortidan jon-jahdi bilan yugurayotgan Xasaning behuda orzular, o'tkinchi, bevafo umr ortidan yugurgani, hayotdan ro'shnolik ko'rmay o'tishi arzimas sabab bilan uni otib ketishganda oydinlashadi. "Osmonga qaradim. Shamol varrakni butunlay boshqa tarafga uchirib borardi. Xasan bor vujudi bilan oldinga yelib borardi"[13]. Varrak uchirish xalq milliy an'analaridan hisoblanib, katta-kichik bu tadbirga alohida tayyorlangan. Asar poyonida Amir Xasaning o'g'lini qutqarishi uni do'sti oldida gunohi yuvilishi sifatida tasvirlangan. Suhrobning varrak uchirishini ko'rib Amir yengil tortadi. Aslida ikki holatda ham varrakni shamol uchirib ketgan edi. Birinchi holatda Xasan shamol ortidan varrak quvlab yugurdi va yomonlar qo'lga tushib qoldi. Taqdiri ham fojeali yakunlandi. Ikkinchi vaziyatda shamol uchirgan varrak ortidan yugurgan Suhrobning quvonchi o'quvchida uning kelajagi bilan bog'liq umid tug'diradi.

Ozərbayjonlik yozuvchi İsmoil Saryalning "Baku ruzgari"(Boku shamoli) asarida ozərbayjon xalqining urush davridagi achchiq hayoti qalamga olinadi. Asarda keltirilgan shamol detali vositasida xalq ma'naviyati, ma'rifatini yo'q qilishga qaratilgan shavqatsiz istibdod tuzum ifoda etiladi, shuningdek, Bokuning shamollar shahri ekaniga urg'u beriladi. Romanda asosan, Ozərbayjon hukumati tomonidan chet elga o'qishga yuborilgan yoshlarning Chor hukumati tomonidan qattiq tayziq ostiga olinishi voqealari bosh qahramon O'g'uz taqdiri orqali ko'rsatiladi. Asarda nafaqat bir ozərbayjonlik yoshning taqdiri, balki "vatanini tashlab Turkiyaga boshpana topgan minglab ozərbayjon oilalari" taqdiri aks etgan.

"Bakı rüzgari əsəri İsmayıl Saryalın ömür parçasını əks etdirir. Müəllif əsərində uşaqlıq, gənclik illəri ilə birlikdə mühacirət etməyə məcbur olan zaman özünün, yoldaşlarının və ailəsinin başına gələn dəhşətli cətinliklərdən bəhs edir. İsmayıl Saryal əsərində bəhs etdiyi hadisəni üçüncü şəxs, adını Oğuz qoyduğu qəhrəmanının dili ilə nəql edir. Əslində bəhs elədiyi Oğuz özüdür"[14].

Shamol bilan bog'liq jummalarni asarlarda qo'llanishi ham asar badiyatini oshishiga sabab bo'ladi:

1. Eshitishimga qaraganda, u Mirzavoyga shu yerda qolish niyati borligini aytganmish. Ho-oy, shamol bo'lmasa, daraxtning shoxi qimirlamaydi. (Shoyim Bo'tayev. Shamol o'yini)

2. Hoy birodar, umr shamolday yelib o'tib ketadi, olamda sadoqatdan, mehru muhabbatdan qiymatliroq hech nima yo'q, axir! (Isajon Sulton.Yusuf va Zulayho)

### XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, asar sarlavhasi badiiy asarning yadrosi hisoblanadi, muallif maqsadi sarlavhada namoyon bo'ladi. Sarlavhada peyzaj detallaridan foydalanish orqali detalning obrazlashtirish ijodkor badiiy mahoratidan dalolat beradi. O'zbek va jahon adabiyotida yaratilgan detal-sarlavhali asarlarning aksariyatida ijodkor mazkur detalning ramziy ma'nolariga tayanib asar badiiy g'oyasini yoritish, personajlar qiyofasi, davr muammolari, jamiyatdagi illatlarni fosh etishni nazarda tutadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qobul B. Enashamol: qissalar. — Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Do'stmuhammad H. Hikoya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Shodmonova D.Yashar Kamol asarlarida peyzaj tasviri va uning tarjimalarda aks etishi // Translation forum 2022. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 28 ISSN
4. Xolmatov D.A. XX asr ikkinchi yarmi -XXI asr boshlari o'zbek hikoyalarida davr va qahramon masalasi.(O.Yoqubov, X.Do'stmuhammad, Sh.Bo'tayev hikoyalari misolida) Dissertatsiya.Farg'ona, 2024
5. Y.Solijonov.Shamol yo'li: Detaldan obrazgacha.Kitob dunyosi.14.06.2023
6. Matyoqubov S. Nazar Eshon hikoyalarida ijodiy individuallik. O'zbek tili va adabiyoti, 2011. 5-son.
7. Yoqubov O. Ayamajuz: Hikoyalar. —Toshkent. Adabiyot, 1963.
8. Husayniy, Xolid. Shamol ortidan yugurib: roman. / Tarjimon Rustam Jabborov. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
9. Norqobilov N. Bo'ron qo'pgan kun:Qissa va hikoyalar. —Toshkent: Sharq, 2007.
10. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/anvar-muqimov-1929-1993/anvar-muqimov-qo-qon-shamoli-hikoya>